



# ILMIY AXBOROTNOMA

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК**

**SCIENTIFIC REPORTS**

**2016-yil 4-son (98)**

**GUMANITAR FANLAR SERIYASI**

**Tarix. Falsafa. Sotsiologiya. Filologiya. Pedagogika.  
Psixologiya. Iqtisodiyot.**

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.

Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan. Tarix, falsafa, sotsiologiya, filologiya, pedagogika va psixologiya yo'nalishlarida chop qilingan maqolalar doktorlik dissertatsiyalari himoyasida hisobga olinadi.

**BOSH MUHARRIR:**

**A. R. XALMUXAMEDOV, f.-m. f. d., professor**

**BOSH MUHARRIR**

**A.J.XOLIQOV, k.f.d., dotsent**

**O'RINBOSARLARI:**

**A. M. NASIMOV, t.f.d., professor**

**TAHRIRIYAT KENGASHI:**

|                        |                                  |
|------------------------|----------------------------------|
| <b>M. X. ASHUROV</b>   | - O'zFA akademigi                |
| <b>M. M. KAMILOV</b>   | - O'zFA akademigi                |
| <b>B. J. AXMEDOV</b>   | - f.-m. f. d., professor         |
| <b>A. S. BEGMATOV</b>  | - fals.f. d., professor          |
| <b>T. M. MO'MINOV</b>  | - O'zFA akademigi                |
| <b>X. I. IBRAGIMOV</b> | - ped.f.d., professor            |
| <b>X. T. MAMATOV</b>   | - yu.f.d., professor             |
| <b>U.S. SALIXBAYEV</b> | - f.-m.f.d., professor           |
| <b>E. G'. G'OZIYEV</b> | - psixol.f.d., professor         |
| <b>F.I. TOSHEV</b>     | - «Zarafshon» gazetasi muharriri |
| <b>T. SH. SHIRINOV</b> | - tar.f.d., professor            |
| <b>M. Q. QURONOV</b>   | - ped.f.d.professor              |
| <b>B. O. TO'RAYEV</b>  | - fals.f.d., professor           |

**GUMANITAR FANLAR SERIYASI**

**TAHRIRIYAT HAY'ATI:**

|                           |                          |
|---------------------------|--------------------------|
| <b>M.D.DJURAKULOV</b>     | - tar.f.d., professor    |
| <b>I. M. SAIDOV</b>       | - tar.f.d., professor    |
| <b>O. M. G'AYBULLAYEV</b> | - fals.f.d., dotsent     |
| <b>N. SH. SHODIYEV</b>    | - ped.f.d., professor    |
| <b>B. Y. YO'L DOSHEV</b>  | - fil.f.d., professor    |
| <b>Sh. S. SAFAROV</b>     | - fil.f.d., professor    |
| <b>D. I. SALOHIY</b>      | - fil.f.d., professor    |
| <b>S. A. KARIMOV</b>      | - fil.f.d., professor    |
| <b>M. Q. PARDADEV</b>     | - i.f.d., professor      |
| <b>M. M. MUXAMMEDOV</b>   | - i.f.d., professor      |
| <b>B. X. TO'RAYEV</b>     | - i.f.d., professor      |
| <b>Sh. R. BARATOV</b>     | - psixol.f.d., professor |
| <b>B. Q. QODIROV</b>      | - psixol.f.d., professor |
| <b>Z. Yu. MUQIMOV</b>     | - yu.f.d., professor     |
| <b>J. Ya. YAXSHILIKOV</b> | - fals.f.d., professor   |

**Koordinator:**

**A. Sh. YARMUXAMEDOV – f. - m.f.n.**

**Muharrirlar:**

|                        |                      |
|------------------------|----------------------|
| <b>B. S. G'OYIBOV</b>  | - t.f.n., dotsent    |
| <b>R. TOSHQUVATOVA</b> | - fals.f.n., dotsent |
| <b>N. U. ARABOV</b>    | - i.f.n., dotsent    |
| <b>H. BERDIYEV</b>     | - fil.f.n., dotsent  |
|                        | - fil.f.n., dotsent  |

## MUNDARIJA/CONTENTS/СОДЕРЖАНИЕ

| TARIX/HISTORY                            |   |    |
|--|---|----|
| <b>Гойибов Б.С.</b>                      | <b>К нумизматической истории Согда<br/>About the numizmatics histori of Sogd</b>  | 6  |
| <b>Abdullaev A.</b>                      | <b>Xiva xonligi va Amudaryo bo`limidagi qoraqalpoqlarning hududiy joylashuvi va ijtimoiy ahvoli(XIX asrning ikkinchi yarmi - XX asrning boshlari)</b><br>The social position and location of Karakalpaks in Khiva khanate and Amudarya region (the middle of XIX century and the beginning of XX century) | 11 |
| <b>Hayitov Sh., Saidov I.</b>            | <b>Muhojir o‘zbeklar axloqi va ular ma’naviy-ma’rifiy yuksalishining tarixiy ildizlari xususida (1917-1991 yillar)</b><br>About the morale of emigrate Uzbeks and the historical roots of their spiritual-cultural development (1917-1991)  | 15 |
| <b>Умаров А.</b>                         | <b>Движение «Талибан» после 2014 г: состояние и перспективы</b><br>The “Taliban” movement after 2014: state and prospects   | 18 |
| <b>Jumanazarov X.S.</b>                  | <b>Farg‘ona vodiysi xalq tabobati tadqiqotchilar nazdida</b><br>Alternative medicine of Fergana valley researches’ outlook  | 25 |
| <b>Mirzayev G.R.</b>                     | <b>Xalq diplomatiyasiga asoslangan O‘zbekiston – Turkmaniston hamkorligi tarixidan</b><br>From the history of cooperation between Uzbekistan and Turkmenistan based on nation diplomacy   | 29 |
| <b>Muhiddinov S.</b>                     | <b>Turkistonda ta’lim tizimini boshqarish tarixiga oid muhim bir hujjat</b><br>The document about management of education in Turkestan  | 33 |
| <b>Radjabova D.N.</b>                    | <b>Turkiston xotin-qizlarini o‘lkadagi siyosiy jarayoniga jalb etilishi tarixidan(XIX asr oxiri – XX asr boshlari)</b><br>From the history of women’s involvement in political processes of Turkestan within the period of late 19 <sup>th</sup> and 20 <sup>th</sup> centuries                           | 37 |
| <b>Xushvaqtov N.H.</b>                   | <b>O‘rta Osiyo madrasalari ta’lim tizimi tarixidan</b><br>History of education system in madrassahs of middle asia  | 40 |
| <b>Yakubov M.K.</b>                      | <b>Gerold Lembning “Amir Temur hukmdor va sarkarda” asarida Sohibqiron siymosi</b><br>The personality of Timur the Great in the work of Harold Lamb “Tamerlane, the earth shaker.”  | 44 |
| <b>Xomitov R.X.</b>                      | <b>O‘zbekiston va Latviya davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik aloqalari-yangi bosqichda (1991-2015 yillar)</b><br>Collaboration between Uzbekistan and Latvia states on new stage (1991-2015 years)   | 46 |
| FALSAFA/PHILOSOPHY                       |   |    |
| <b>G‘aybullayev O.M.</b>                 | <b>Globalashuv jarayonida shaxs estetik madaniyatining milliy va mafkuraviy ko‘rinishlari</b><br>National and ideological types aesthetic culture of person in globalization progress   | 50 |
| <b>Тошкуватова Р.Ш.<br/>Маркова Г.В.</b> | <b>Формирование идеологического иммунитета – фактор безопасности и стабильности</b><br>Formation of ideological immune as a factor of safety and stability  | 53 |
| <b>Aymatov A.Q.</b>                      | <b>Tabiatga estetik munosabatni shakllantirishda ekoliyani estetikalashtirish va estetikani ekologiyalashtirish muammolari</b><br>The problems esthetics of ecology and ecologies of aesthetic in forming aesthetic relations to nature   | 57 |

|                         |  |    |
|-------------------------|--|----|
| <b>Ochilov J.A.</b>     | <b>Texnogen sivilizatsiya transformatsiyasi va globallashuvi</b><br>Globalization and transformation of technogen civilization   | 61 |
| <b>Xolmaxmatov A.X.</b> | <b>Yoshlar siyosatini amalga oshirishning ma'naviy asoslari</b><br>Spiritual basis of the implementation of youth policy   | 67 |
| <b>Quvvatov S.</b>      | <b>Go'zallikka intilish – insonning etnomadaniy xususiyati sifatida</b><br>The striving for beauty as the ethnocultural peculiarity of person                                  | 70 |
| <b>Mavlanov Sh.</b>     | <b>Global o'zgarishlar davrida ma'naviyat sohasida islohotlarni rivojlantirish zarurati</b><br>The need for reforms in the spiritual sphere in the context of global change    | 74 |
| <b>Pirnazarov G'.</b>   | <b>Fuqarolik jamiyati va huquqiy madaniyatimiz negizlariga bir nazar</b><br>Look back at roots of legal culture and civil society  | 77 |
| <b>Qodirov N.N.</b>     | <b>Ommaviy axborot vositalarining yoshlar ijtimoiy faollligini oshirishdagi o'rni</b><br>The role of means of mass information in increase social activity of youth            | 79 |
| <b>Negmatova Sh.Sh.</b> | <b>Sog'lom ma'naviy raqobat – milliy-ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash omili sifatida</b><br>Healthy spiritual contention –as a factor of national spiritual safety             | 84 |
| <b>Ernazarova Yo.O.</b> | <b>Sharq mutafakkirlari ta'limotida boshqaruv madaniyati va kasb odobi masalalari</b><br>Questions of management culture and professional ethics of eastern thinkers teachings | 87 |

**SOTSILOGIYA/SOCIOLOGY**

|                      |  |    |
|----------------------|--|----|
| <b>Kalanova S.M.</b> | <b>Oila va avlodlar tarixini o'rganishga sotsiologik yondashuv</b><br>The sociological approach to the study of family issues and the history of the descendants | 90 |
|----------------------|--|----|

**FILOLOGIYA/PHILOLOGY**

|  |   |     |
|--|---|-----|
| <b>Davronova Sh.</b>                   | <b>Omon Muxtorning "Ffu" romanida xalq og'zaki ijodi an'analari</b><br>The oral national traditions of the novel "Ffu" by Omon Muxtor   | 95  |
| <b>Eshonkulov Sh.E.</b>                | <b>Zarafshon vohasidagi toponimlarning etnik xususiyatlari va urug'-qabila nomlari bilan bog'liqligi</b><br>Ethnic properties of toponymy in Zarafshan territory and it's connection with names of tribes | 98  |
| <b>Mardihev T.K.</b>                   | <b>Baxt tuyg'usini ifodalovchi konseptning ingliz va o'zbek tillarida verballashuvi</b><br>Verbalization of concept, "Happiness" in English and Uzbek languages   | 101 |
| <b>Muhiddinova B.M.</b>                | <b>Umar Hayyom ruboilyari tarjimasida Shoislom Shomuhamedov mahorati</b><br>Shoislam Shamukhamedov's interpreting skills in translation of rubais of Omar Hayyam  | 104 |
| <b>Yo'idoshev B., Yo'idosheva D.</b>   | <b>Said Ahmadning badiiy asar tili va nutq madaniyatiga doir qarashlari xususida</b><br>views of Said Ahmad language artwork and culture of speech  | 108 |
| <b>Abduvaliyev A., Abduvaliyeva D.</b> | <b>Navoiyning "Tarixi muluki ajam" asarida qo'llangan arabcha o'zlashmalar</b><br>Arabic borrowed words in the work "Tarixi muluki ajam" of Navoi   | 112 |
| <b>Amanov A.T.</b>                     | <b>Paremiyalarning xususiyatlari va ularni madaniy me'ros sifatida o'rganish</b><br>Investigation of peculiarities of proverbs and their cultural heritage  | 114 |
| <b>Ikramova S.A.</b>                   | <b>Makonning o'ziga xos universal tabiatি</b><br>Peculiar universal nature of space   | 116 |

|   |   |     |
|---|---|-----|
| <b>Sulaymanova N.J.</b>                             | <b>Lokativ sintaksemalarning vositalari va ularning xususiyatlari</b><br>Means of locative syntaxemes and their peculiarities   | 119 |
| <b>Yusupova O.S., Umirova S.M.</b>                  | <b>Badiiy-estetik ifodada shakl va mazmun mutanosibligi</b><br>The proportionality of form and meaning in the (expression) literary (ethe) aesthetic expression   | 123 |
| <b>Teshabayeva D.M.</b>                             | <b>Ommaviy axborot vositalari tilida nutq madaniyatining zamonaviy konsepsiysi</b><br>Modern conception of speech culture in the language of mass media   | 127 |
| <b>Boltakulova G.F.</b>                             | <b>Bir yadroli gaplar tarkibida temporallik</b><br>Temporality in the structure of one-member sentences   | 130 |
| <b>Bumatova A.M.</b>                                | <b>She'riy tarjimada lingvopoetik birliklar: J.G Bayronning "Zamon" she'ri tahlili asosida</b><br>Lingvopoetic units of the poetic translation: on the basis of the analysis of the poem of J.G.Byron "To time"   | 133 |
| <b>PEDAGOGIKA/PEDAGOGICS</b>                        |   |     |
| <b>Mamatqosimov J.A.</b>                            | <b>Kasb-hunar kollejlari o'quvchilarda nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish tizimini takomillashtirishning konseptual muammolari</b><br>Conceptual problems of formation of the systems of intangible cultural heritage protection at the students of professional colleges     | 141 |
| <b>O'razboyeva M.Q.</b>                             | <b>Xudbinlik va aqidaparastlik illatining qayta idrok etilishi</b><br>Manifestation of egoism and fanaticism  | 146 |
| <b>Shodiev N.<br/>Axmedova Sh.<br/>Po'latova M.</b> | <b>Bo'lajak o'qituvchilarni ekologik tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashni tizimli yondashuv metodi orqali o'rganish</b><br>Promising environmental education of future teachers by means of a systematic approach   | 149 |
| <b>Axmedova H.M.</b>                                | <b>Художественно-эстетический анализ миниатюры бехзада на внеаудиторных занятиях в педагогических высших учебных заведениях</b><br>Artistically-aesthetic analysis of miniature of Bekhzad on extracurricular employments in pedagogical higher educational establishments          | 153 |
| <b>Saydaliyev S.<br/>Haqberdiyev B.</b>             | <b>Tasviriy san'at va chizmachilik fani vositasida o'quvchilarda dizaynga oid bilimlarni shakllantrish</b><br>Development of students' knowledge in the field design by fine arts and drawing   | 157 |
| <b>Asilova G.A.</b>                                 | <b>Davlat tilida og'zaki va yozma muloqotga o'rgatishda ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirish masalalari</b>   | 160 |
| <b>Zohidova S.R.</b>                                | <b>Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy ijtimoiylashtirishda umumkasbiy va xususiy-metodik bilimlar integratsiyasining roli</b><br>The significance of general professional and individual methodological knowledge integration to the professional socialization of the future teachers | 165 |
| <b>Hazratqulov M., Nasimova Sh.</b>                 | <b>Insho vositasida o'quvchilar bilim va tafakkurini rivojlantirish</b><br>Innovation education and its scientific – methodical sides   | 170 |
| <b>Akramova Sh.A.</b>                               | <b>Yoshlarda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning ijtimoiy pedagogik omillari</b><br>Social-economic factors of formation of ideological immunity of youth   | 172 |
| <b>Narmetova Yu.</b>                                | <b>Tibbiyot muassasalarida faoliyat yurituvchi psixolog kadrlar tayyorlash muammolari</b><br>The problems of training psychologic staff working at medical establishments   | 175 |

|  |  |     |
|--|--|-----|
| <b>Eshmamatov I.A.</b>   | <b>Pedagogning axborot-kommunikativ kompetentligini ta'lif faoliyatida loyihalash</b><br>Designing of information and communication competence of the teacher in educational activities  | 181 |
| <b>PSIXOLOGIYA/PSYCHOLOGY</b>  |  |     |
| <b>Shonazarov A.M.</b>   | <b>Umumta'lim maktablari rahbarlari kasbiy kompetentligining psixologik mexanizmlari</b><br>Psychological mechanisms of the professional competency of administrators at the modern education system   | 186 |
| <b>Shodihev N.<br/>Jiyanqulova R.X.<br/>Igamov S.S.<br/>Raximov A.A.</b> | <b>Kasb-hunar kollejlarida pedagog mutaxassislarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning psixologik jihatlari</b><br>Psychological aspects of career guidance teachers in vocational colleges   | 190 |
| <b>IQTISODIYOT/ECONOMICS</b>   |  |     |
| <b>Tashnazarov S.N.</b>  | <b>Innovatsion iqtisodiyot sharoitida moliyaviy buxgalteriya hisobi va hisoboti mustaqil fan sifatidagi xususiyatlari va taraqqiy ettirilishi</b><br>Identify financial accounting and reporting of independence science and development under the condition of innovation economy | 196 |
| <b>MUALLIFLARGA/FOR AUTHORS</b>  |  | 200 |

Xullas, baxt konsepti mazmunidagi qadr-qiyomatga erishishni barcha inson istaydi. Hamma umr bo‘yi baxtga erishishga intiladi. Baxtga intilish insonning tug‘ma xususiyatidir, shuning uchun ham bu har qanday axloqning negizi bo‘lishi mumkin.

### Adabiyotlar

1. Abu Nasr Farobi. Fozil odamlar shahri. – T.: Abdulla Qodiriy, 1993.-223 b.
2. Abdurozoqova Sh. Tafakkur gulshani. –T.: G‘afur G‘ulom, 1989.-462 b.
3. Charles Dickens, A tale of two cities. Web site at <http://www.planetpdf.com>. Page. 331
4. Charles Dickens, A Christmas Carol. Web site at <http://www.planetpdf.com>. Page. 56
5. [www.arxiv.uz](http://www.arxiv.uz).

**T.K.Мардиев**

### ВЕРБАЛИЗАЦИЯ КОНЦЕПТА «СЧАСТЬЕ» В АНГЛИЙСКИХ И УЗБЕКСКИХ ЯЗЫКАХ

В данной статье рассматривается вербализация (и смысловое значение) концепта «счастье» в английских и узбекских паремиологических словарях, в научных статьях и в художественных произведениях. Также связь и использование понятия «счастье» во всех сферах социальной жизни.

**Ключевые слова:** Вербализация, чувства, лексема, счастье, несчастье, компетент-дефиниция, нравственность, представление, духовность, человеческое, черты характера.

**T.K.Mardiyev**

### “VERBALIZATION OF CONCEPT, “HAPPINESS” IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES”

Verbalization of concept “happiness” in English and Uzbek paremiological dictionaries, in scientific articles and in fiction is being discussed in this article. There you can also see connection and usage of concept “happiness” in all spheres of social life.

**Key words:** Verbalization, feelings, lexemes, happiness, unhappiness, competent-definition, ethics, imaginations, moral, human, features of character.

**UDK: 891.709**

### UMAR HAYYOM RUBOIYLARI TARJIMASIDA SHOISLOM SHOMUHAMEDOV MAHORATI

**B.M.Muhiddinova**

*Samarqand davlat universiteti, dotsent*

E-mail: [badiamuslixiddinovna@mail.ru](mailto:badiamuslixiddinovna@mail.ru)

**Annotatsiya.** Sharq ruboyichiligidagi Umar Hayyomning o‘rnı beqiyos bo‘lishidan tashqari, uning asliyatdagi mazmunini tarjimada ifoda ettira bilish katta mahoratni talab qiladi. Ushbu maqolada Umar Hayyom ruboiylarini tarjima qilishda Shoislom Shomuhamedovning tarjimon adib sifatidagi faoliyati va badiiy mahorati tadqiq etilgan.

**Kalit so‘zlar:** tarjimonlik mahorat, sharq ruboyichiligi, she’r vazni, qofiya, ohang, tashbeh, istiora, majoz, kinoya, badiiy mahorat, badiiy yuksaklik, badiiy ifoda vositalari.

Shoislom Shomuhamedov Hayyom hayoti va ijodi bilan o‘zbek kitobxonlarini tanishtirish borasida barakali xizmat qildi. U olim sifatida Hayyom hayotini chuqur tekshirib, mazmundor ilmiy maqolalar yozgan bo‘lsa, tarjimon sifatida shoir ruboiylarini kitobxonlarga tortiq etdi. Hayyom hayoti va ijodi ustida uzoq ishlash Sh.Shomuhamedovning ijodiy faoliyatida chuqur iz qoldirdi. Shoir ko‘pgina ruboiylarida Hayyom asarlaridan ilhomlanib, mavzu va mazmunni zamonaga mos tarzda tasvirlashga erishgan.

Sh.Shomuhamedov “Tarjima san’ati” kitobida o‘zining “Ham san’at, ham ilm” degan maqolasi bilan qatnashib, she’riy tarjimaga xos yaxshi fikrlarni bayon etgan. “Boshqa tilda tamomila obruzli tafakkur tahvilidagi xalqlar tilida ma’no va g‘oyalarni aks ettirish qanchalik ahamiyatga molik bo‘lsa, asl nusxaning obrazlar sistemasi va umumiy shakliy xususiyatlarini saqlab qolish ham shunchalik muhimdir. Tarjimada she’rning vaznnini aks ettirish masalasi murakkab nazariy masalalardan biridir. She’rning vaznnini aks ettirish – uning kuyi, musiqasi, binobarin, kayfiyat va tuyg‘ularini aks ettirish demakdir. Sharq she’riga xos ko‘p xususiyatlar, masalan, ichki qofiya, tovushlarning takrorlanib kelishi, alleteratsiya, tarkibli qofiyalar, omonimlik qofiyalar va shu kabilarni tarjimada aks ettirish masalalari haqida ko‘p gapirish mumkin. Shoir tarjimonlar faqat o‘zlari tarjima qilayotgan asarlarning yaralish davri, yozuvchining tarjimai holi va ijodiy uslubinigina emas, balki shu

bilan birga ayni asarning qanday tug'ilganligini, bu asar yaratilgandan so'ngra u haqda va uning atrofida qanday voqealar sodir bo'lganligini ham bilishi zarur. Tarjimon o'zi tarjima qilayotgan har bir shoир ijodining sir-asrorini ochish kerak. Bu ishda hech qanday oldindan tayyorlangan qolip yoki andoza berib bo'lmaydi, balki maxsus she'riy tuyg'u didga ega bo'lish kerak. Tarjima birinchi galda san'atdir, lekin faqat san'atgina emas, to'g'rirog'i bu ham san'at, ham ilmdir, binobarin uni ilmiy asosga ko'chirish zarur" [5]. Sharqshunos olimning tarjima haqidagi so'zi o'z faoliyatida ham yorqin ifodasini topgan.

Endilikda tarjimalarni samarali mehnati va g'ayrati orqasida Hayyom asarlari hozirgacha o'zbek tilida sakkiz marta nashr qilindi. Ayniqsa, 1971 yilda fors, o'zbek, rus tilida nashr etilgan Hayyom ruboilari keng kitobxonlar ommasining sevimli kitobi bo'lib qoldi. Sh. Shomuhamedovning 1963 yili nashr etilgan "Fors-tojik adabiyoti klassiklari" degan kitobidan Hayyom hayoti, ijodi va shoир haqida dunyo adabiyotshunos olimlarining fikri mazmunli bayon etilgan. Kitobdagagi ma'lumotlar Hayyomning hayoti va ijodi bilan qiziquvchi kishiga zo'r ma'naviy ozuqa beradi. Hayyomning ijodi va hayotining xarakterli tomoni shundaki, uning ruboilari na davriy, na milliy chegaralarni biladi, ular umumbashariyat badiiy fikr xazinasini boyitib, bir xalqdan ikkinchi xalqqa, bir davrdan ikkinchi davrga o'tib, adabiy so'nmas nur bilan kishilar qalbiga ziyo sochib kelmoqda.

Umar Hayyom ruboilalarining asliyatdagagi mazmunini tarjimada ifoda ettira bilish katta mahoratni talab qiladi. Shuning uchun shoир ruboilalarini xolis tadqiq etish, ya'ni istiqlol sharofati ila mazkur ruboilarning faqat zohiriy jihatlarigina emas, balki botiniy ma'nolarini ham sharh etish, uning tasavvufiy mohiyatini ham imkon darajasida anglashga intilish bu kunning vazifasidir.

Fors-tojik adabiyotidagina emas, balki jahon adabiyoti tarixida ham o'ziga xos o'ren tutgan Umar Xayyomning nomi juda ko'p rivoyat va afsonalarga qo'shilgan. Ayrim ruboilalarining maydonga kelishi haqida ham rivoyatlar bor. Biroq shoирning biografiyasi haqida ma'lumotlar juda oz. Umar Hayyom o'z zamonasining yetuk olimlaridan biri bo'lgan. U matematika, astronomiya va falsafaga oid bir qancha asarlar yozib, allaqancha kashfiyotlar qilgan. Ammo u o'zining jahonshumul ilmiy tadqiqotlari bilan emas, nodir she'riy asarlari, ya'ni boy ruboiloyoti tufayli olamga mashhur bo'ldi. Hayyom ruboilalarini mavzusiga qarab, bir necha guruhlarga ajratish mumkin. Umar Hayyom, avvalo, tabiatshunos olim, astronom va faylasuf sifatida dunyonи bilishga, uning sirlarini tushunishga harakat qiladi. Uning ijodida kishilik tafakkurining butun bir davri o'z ifodasini topgan. Mutafakkir shoир dunyoning tuzilishi, unda odamzotning o'rni haqida o'yga tolar ekan, o'tkir did va chuqur mulohaza bilan insonning dunyoda eng oliy vujud ekanini ta'kidlaydi:

Maqsud zi jumli ofarinish moyem,  
Dar chashmi xirad gavhari binish moyem.  
In doirai jahon chu angushtari ast,  
Be hech shak/k/e, naqshi niginesh moyem. [1, 54-bet]

Shoislom Shomuhamedov fors-tojik tilini yaxshi bilganligi, Hayyom aytadigan fikrni yaxshi his etganligi tufayli bu ruboyni tarjima qilishda ohangdorlikni saqlab qolishga hamda, o'ziga xos qofiya topishga erishib, quyidagicha tarjima qiladi:

Dunyoning tilagi, samari ham biz,  
Aql ko'zin qorasi, javhari ham biz.  
To'garak jahonni uzuk deb bilsak,  
Shaksiz uning ko'zi – gavhari ham biz. [2, 49-bet]

Bu yerda shoир insonni dunyoda oliy mavjudot deb hisoblaydi, ya'ni olamni uzuk deb olsak, unga jilo berubchi yoqut ko'zi inson ekanini ta'kidlaydi.

Uning har bir ruboysi bir hikmat, aforizm darajasiga ko'tarilgan. Hayyom badiiy mahoratiga yuksaklik va teranlik degan ikki so'z bilan baho bersa bo'ladi. U sodda, ammo chuqur mazmunli obrazlar, tashbeh va istioralar, majoz va kinoyalar yordami bilan badiiy yuksaklikka va mantiqiy teranlikka erisha olgan. U o'z ruboilalarida fors-tojik adabiyotida ishlanib, voyaga yeta boshlagan badiiy ifoda vositalardan ham, xalq og'zaki ijodida keng qo'llaniladigan badiiy vositalardan ham g'oyat ustalik bilan foydalanish natijasida erisha olgan.

Umar Hayyom Yevropada fors adabiyotining zabardast namoyondalari Firdavsiy, Muslihiddin Sa'diy, Hofiz Sheroziy kabi shoirlar qatoridan o'ren oldi, hatto ulardan ko'ra ham ko'proq shuhrat qozondi. XIX asrning o'rtalarida ingliz shoiri Eduard Fitsjerald Umar Hayyom she'rlarini ingliz tiliga tarjima qildi. Uning tarjimalari juda erkin bo'lib, hali aniq va aynan tarjimadan uzoq bo'lishiga

qaramay, Yevropada katta shuhrat qozondi. Bu tarjimalar XIX asrning ikkinchi yarmidayoq 25 marta bosilib chiqdi. Shu vaqtidan boshlab, Hayyom ruboiyalarini nashr qilish yildan-yilga orta bordi, uning ijodiga bag‘ishlangan juda ko‘p asarlar yozildi.

Sh.Shomuhamedov ham o‘zbek tilida birinchi marta fors-tojik namoyondalarining hayot yo‘lini mufassal yoritadi, ijodi, yashagan muhitni to‘g‘risida mukammal ma’lumot beradi. Ularning ijodini chuqur tahlil qiladi. Bemalol aytish mumkinki, o‘zbek kitobxonlari Umar Hayyom va boshqa fors-tojik namoyondalarining asarlarini Shoislom Shomuhamedov orqali o‘qib bahramand oldilar.

Biz Umar Hayyom ruboiyalaridan so‘ng Sh.Shomuhamedov ruboiyalarini o‘qib chiqsak, shoir asarlarida Hayyomning ta’siri qanchalik kuchli ekanligini ko‘ramiz. Umar Hayyom ijodini mukammal bilganligi uchun ham Shoislom Shomuhamedovning ko‘pgina ruboiyalarida Hayyom fikrining rivojlantirilganligini ko‘ramiz:

*Tomchi suv daryoda yo‘q bo‘lib ketdi,  
Erga chang qo‘ndi-yu ko‘milib ketdi.  
Dunyoga kelishing, ketishing nima?  
Bir chivin tug‘ildi yo o‘lib ketdi.[2, 59-bet]*

Hayyom bu ruboysiда xalqqa, jamiyatga nafi tegmay, eldan ajralib kun kechiruvchi ayrim maqsadsiz kishilarni qadrsiz chivinga o‘xshatadi. Shoislom Shomuhamedov Hayyomning bu ruboysi ta’siri ostida o‘zining:

*Bir tomchi daryoga yutilib ketdi,  
Ko‘p tomchidan daryo quturib ketdi.  
Kuch-qudrat istasang, eling bilan bo‘l,  
Ko‘pdan quyon qachon qutilib ketdi.*

degan ruboiy yozadi. Bunda shoir inoqlikda hikmat ko‘pligini alohida ta’kidlaydi. Chindan ham, xalqimiz “Yakka otning changi chiqmas, changi chiqsa ham, dongi chiqmas” deb bejiz aytmagan. Har bir inson el-yurtini jon dildan sevib, xalqi bilan hamdam bo‘lsa, ko‘zlagan natijaga orzusiga yetadi.

Umar Hayyom fors va arab tillarida bir qancha she’rlar yozgan, lekin uning ijodida son jihatidan ham, salmoq jihatidan ham asosiy o‘rinni ruboiy egallaydi. Umar Hayyom o‘z ruboiyalarida fors-tojik adabiyotida ishlanib, voyaga yeta boshlagan badiiy ifoda vositalaridan ham g‘oyat ustalik bilan foydalanish natijasida erisha olgan. Hayyom xalq og‘zaki adabiyotida qo‘llaniladigan jonlantirish vositasidan ustalik bilan foydalanar ekan, kulol tepib turgan loy ham tilga kirib, ajoyib so‘zlarni aytadi:

*Bar sang zadam do‘sh sabo‘I koshy,  
Sarmast budam, ki kardam in avboshy:  
Bom an ba zaboni hol meguft sabo‘,  
Man chun tu budam, tu niz chun man boshy.[1, 71-bet]*

Shoir bu ruboiyda aytadigan fikrni tarjimon yaxshi tushunib, uni o‘zbek kitobxonlariga ajoyib ohang bilan yetkaza olgan:

*Mastdim, toshga urdim ko‘zamni bir kun,  
Ul ko‘ngil tilidan chiqardi bir un:  
Men ham sendek edim, sen ham oxiri  
Bo‘lursan meningdek – ranjitmoq nechun.[2, 91-bet]*

Sh.Shomuhamedov Hayyomning barkamol mahoratini sinchkovlik bilan o‘rganib chiqqanligi tufayli uning ruboiyalarini tarjima qilayotgan paytda o‘ziga xos qofiya va ohang tanlay olgan.

Hayyom she’rni esda qoladigan qilish, uning ta’sir kuchini oshirish, undagi fikrlarni lo‘nda, maqsadni yaqqol qilish, kichkina she’r va ruboiyiga ulkan ma’no sig‘dirib, uni katta asarga aylantirib yuborishga juda mohir. Buning uchun xalq og‘zaki rivoyat va afsonalaridan, ulardagi mashhur obrazlardan juda o‘rinli foydalanadi. Sh. Shomuhamedov:

*Tanangda bor ekan tomir, suyak, pay,  
Yashayver taqdiring uyidan chiqmay.  
Yov Rustam bo‘lsa ham bo‘ying egma,*

*Minnat chekma do‘sting bo‘lsa Xotamtoy.[2, 116-bet]* deb shoirning quydagi ruboysiini tarjima qiladi:

*Todar tani sust ustuxonu ragu pay,  
Az xonai taqdir maneh, be run pay:  
Gardan maneh ar hasm buvad Rustami Zol,  
Minnat makash ar do'st buvad Hotami Toy.[1, 83-bet]*

Bu ruboiyda xalq ertaklaridagi Rustam va saxiylik timsoli bo'lgan Hotam Toy obrazlari yaratiladi. Shoir bunday xalq rivoyatlari va afsonalaridan o'rinni foydalanishi bilan asar ta'sirchanligini oshirgan.

Umar Hayyom ruboilyarini o'qir ekanmiz, bu asarlarning o'zbek adabiyoti taraqqiyotida ham ta'siri borligi seziladi. A.Navoiy, Z.Bobur kabi o'zbek mumtoz adabiyotining zabardast namoyondalari ijodida biz Hayyomona aytilgan ruboilyar va baytlarni ko'plab uchratamiz. Bu hol ko'p asrlardan beri davom etib kelayotgan adabiy hamkorlikni ko'rsatuvchi yorqin misollardan biridir.

Sh.Shomuhamedovning yana ko'pgina asarlarida Hayyom ruboiyotining ta'siri borligini yaqqol ko'ramiz. Shoir sharq adabiyoti vakillari asarlarini o'zbek kitobxonlariga tortiq etish bilan birga, ular ta'siri ostida bir qancha dilbar asarlar yaratdi. Uning ruboilyarida insoniy fazilat, odamiylik, Vatan, elga xizmat, axloq-odob mavzui bosh masala hisoblanadi.

Sh.Shomuhamedovning ruboilyari ixcham, pishiq va purma'noligi bilan kitobxonlarga ma'naviy zavq bag'ishlaydi. Tarjimon o'zbek kitobxonlarini sharq adabiyoti durdonalari bilan tanishtirish, ularni bu bebafo boylikdan bahramand etish yo'lida barakali ijod qildi. Ayniqsa, Umar Hayyom ijodi uning hayotida alohida o'rinn tutadi.

### Adabiyotlar

1. Умари Хайём. Рубоиёт. Нашриёти Давлати Тоҷикистон. Сталинобод. 1955.
2. Умар Хайём. Рубоийлар. F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1971.
3. Саломов F., Комилов Н.. Жаҳонгашта рубоийлар. Таржима санъати (Мақолалар тўплами, 3-китоб). Адабиёт ва санъат нашр., Т.:1976 – 97-169- бетлар.
4. Саломов F., Комилов Н.. Дўстлик кўприклари. Адабиёт ва санъат нашриёти, Т.: 1979.
5. Шомухамедов Ш. Ҳам санъат, ҳам илм. Таржима санъати., мақолалар тўплами. F.Фулом нашр. 1973 й, 42-бет.
6. Брагинский И.С. «Теория художественного перевода как наука». «Проблемы востоковедения». Издательство «Наука», М.:1974. стр. 443.
7. «Ғиёсул луғат». II жилд.«Адиб» нашр. Душанбе, 1987- 366 бет.

**Б.М.Мухиддинова**

### ХУДОЖЕСТВЕННОЕ МАСТЕРСТВО ШАИСЛАМА ШАМУХАМЕДОВА ПРИ ПЕРЕВОДЕ РУБАИ ОМАРА ХАЙЯМ

Омар Хайям внёс неоценимый вклад в развитие жанра рубаи в поэзии Востока. При этом перевод его рубаи на другой язык, сохраняя содержание и эстетику исходного текста, требует высокое мастерство переводчика. В данной статье исследована переводческая деятельность и художественное мастерство переводчика Шаислама Шамухамедова рубаи Омар Хайяма.

**Ключевые слова:** переводческое мастерство, рубаи, стихотворный размер, ритм, сравнение, метафора, аллегория, ирония, сарказм, художественное мастерство, художественное развитие.

**B.M.Muhiddinova**

### SHAISSLAM SHAMUKHAMEDOV'S INTERPRETING SKILLS IN TRANSLATION OF RUBAIS OF OMAR HAYYAM

Besides the unique place of Omar Hayyam in western rubaids, it needs great skill to explain his rubais in translation. This article investigate the works and literary skill of Shaislam Shamukhamedov who translates in rubais of Omar Hayyam.

**Keywords:**translation, skill, western rubaids, rhyme, tone, irony, literary greatness, devices of literary meaning.

**MUALLIFLAR DIQQATIGA!**

Hurmatli mualliflar, maqola muallif tomonidan qog'ozda chop etilgan va elektron shaklida taqdim qilinishi shart. **Maqolada quyidagi bandlar:** UDK, ishning nomi (o'zbek, rus va ingliz tillarida), maqola hammualliflarining ro'yxati (to'liq familiya, ismi, otasining ismi – o'zbek, rus va ingliz tillarida), muallif haqida ma'lumotlar: ish joyi, lavozimi, pochta va elektron pochta manzili; maqola annotatsiyasi (300 belgigacha, o'zbek, rus va ingliz tillarida), kalit so'zlar (5-7, o'zbek, rus va ingliz tillarida) bo'lishi lozim.

**MAQOLALARGA QO'YILADIGAN TALABLAR!**

Maqolalarning nashr etilishi uchun shartlar nashr etilishi mo'ljallangan maqolalar dolzarb mavzuga bag'ishlangan, ilmiy yangilikka ega, muammoning qo'yilishi, muallif tomonidan olingen asosiy ilmiy natijalar, xulosalar kabi bandlardan iborat bo'lishi lozim; ilmiy maqolaning mavzusi informativ bo'lib, mumkin qadar qisqa so'zlar bilan ifodalangan bo'lishi kerak va unda umumiyligini qabul qilingan qisqartirishlardan foydalanish mumkin; "Ilmiy axborotnoma" jurnali mustaqil (ichki) taqrizlashni amalga oshiradi.

**MAQOLALARNI YOZISH VA RASMIYLASHTIRISHDA  
QUYIDAGI QOIDALARGA RIOYA QILISH LOZIM:**

Maqolalarning tarkibiy qismlariga: kirish (qisqacha), tadqiqot maqsadi, tadqiqotning usuli va obyekti, tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi, xulosalar yoki xotima, bibliografik ro'yxat. Maqola kompyuterda Microsoft Office Word dasturida yagona fayl ko'rinishida terilgan bo'lishi zarur. Maqolaning hajmi jadvallar, sxemalar, rasmlar va adabiyotlar ro'yxati bilan birgalikda doktorantlar uchun 0,25 b.t. dan kam bo'limasligi kerak. Sahifaning yuqori va pastki tomonidan, chap va o'ng tomonlaridan - 2,5 sm; oriyentatsiyasi - kitob shaklida. Shrift - Times New Roman, o'chhami - 12 kegl, qatorlar orasi intervali - 1,0; bo'g'in ko'chirish - avtomatik. Grafiklar va diagrammalar qurishda Microsoft Office Excel dasturidan foydalanish lozim. Matndagi bibliografik havolalar (ssilka) kvadrat qavida ro'yxatda keltirilgan tartibda qayd qilish lozim. Maqolada foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati keltirilishi lozim. Bibliografik ro'yxat alfavit tartibida - GOST R 7.0.5 2008 talablariga mos tuziladi.

- Ikki oyda bir marta chiqadi.
- "Samarqand davlat universiteti ilmiy axborotnomasi"dan ko'chirib bosish faqat tahririyatning yozma roziligi bilan amalga oshiriladi.
- Mualliflar maqolalardagi fakt va raqamlarning haqqoniyligiga shaxsan mas'ul.

**MAQOLAGA QUYIDAGILAR ILOVA QILINADI:**

- Yo'llanma xati;
- Ekspert xulosasi.

# **SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTNOMASI**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК**

**SCIENTIFIC REPORTS**

Mas'ul kotib:  
Musahhih:  
Texnik muharrirlar:  
Dizayner sahifalovchilar:

**R. Sh.Toshquvatova**, fals.f.n.,dotsent  
**M.M. Ro'ziboyev**  
**S. D. Aronbayev**  
**X. Sh. Tashpulatov**  
**A. I. Inatov**

Muassis: Alisher Navoiy nomidagi Samarqand davlat universiteti  
Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.

Telefon: 0 (66) 239-14-07, Faks: 0 (66) 239-13-87  
e-mail: [axborotnoma@samdu.uz](mailto:axborotnoma@samdu.uz)

SamDU «Ilmiy axborotnoma» jurnali tahririyati kompyuterida terildi.  
Bosishga 30.08.2016 yilda ruxsat etildi. Qog'oz o'lchami A-4. Nashriyot hisob tabog'i 10,00.  
Buyurtma raqami 58. Adadi 500 nusxa.

*Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 15.*  
*SamDU bosmaxonasida chop etildi.*